

O'zbek va ingliz tilidagi taqlid so'zlarning o'rni

Aliboyeva Nilufar Mahamatali qizi
nilufarmuhammadjanovna2405@mail.ru
PhD, dotsent
Qo'qon davlat pedagogika institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyoning milliy tilshunosligida tovush va holatga taqlid qiluvchi iboralar, agglyutinatив tillar, xususan, o'zbek tilida taqlidlarning keng qo'llanilishi, qo'shimcha ravishda tovush va holatga taqlidni ifodalovchi mustaqil gap bo'lagi sifatida taqlidlarning deyarli yo'qligi ko'rsatilgan. otlar, sifatlar yoki fe'llar, yuqoridagi so'zlar bilan taqlid qilish. O'zbek tilida taqlidlar keng tarqalgan bo'lsa, ingliz tilida mustaqil turkum sifatida taqlidlar deyarli yo'q. Tilning fonetik tuzilishining ko'p qirraliligi, shubhasiz, so'zlovchining eshitish va tinglash qobiliyati nuqtai nazaridan mavjud bo'lgan barcha tovushlarni ifodalash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ingliz tilida o'zbek tilida tasvirlovchi va taqlid ma'nolarini qanday berish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: taqlid, tasvirlovchi so'z, tasvirlovchi ifoda, onomatopeya, tasvirlovchi vositalar, ot, fe'l, grammatik shakl, tovush va holatga taqlid, aglyutinatsiya.

Роль подражательных слов в узбекском и английском языках

Алибоева Нилуфар Макхматалиевна
nilufarmuhammadjanovna2405@mail.ru
PhD, Доцент
Кокандский педагогический институт

Аннотация. В данной статье отмечаются подражательные выражения звуку и состоянию в национальной языковой картине мира, агглютинативных языках, в частности, широкое использование подражаний в узбекском языке, кроме того, почти полное отсутствие подражаний как самостоятельной части речи, выражающей подражание звуку и состоянию с помощью существительные, прилагательные или глаголы, производные от подражания указанным выше словам. Хотя имитации на узбекском языке широко распространены, имитаций на английском языке как самостоятельной категории почти нет. Многогранность фонетической структуры языка, несомненно, проявляется в его способности выражать все существующие звуки с точки зрения способности говорящего слышать и слушать. В данной статье рассматривается, как придать описательные и имитационные значения на узбекском языке на английском языке.

Ключевые слова: подражание, описательное слово, описательное выражение, звукоподражание, описательные средства, существительное, глагол, грамматическая форма, подражание звуку и состоянию, агглютинация.

The role of imitative words in Uzbek and English

Aliboeva Nilufar Makhmatalievna
nilufarmuhammadjanovna2405@mail.ru
PhD, Associate professor
Kokand state pedagogical institute

Annotation. This article entails imitative expressions to sound and state in national linguistic view of the world, agglutinative languages, particularly, wide usage of imitations in Uzbek,

additionally, almost non-existence of imitations as an independent part of speech expressing imitation to sound and state with nouns, adjectives or verbs, derivation of imitation with the above words. While imitations in Uzbek are widespread, there are almost no imitations in English as an independent category. The versatility of the phonetic structure of language is undoubtedly evident in its ability to express all the sounds in existence in terms of the ability of the speaker to hear and listen. This article discusses how to give descriptive and imitation meanings in Uzbek in English.

Keywords: *imitation, descriptive word, descriptive expression, onomatopoeia, descriptive means, noun, verb, grammar form, imitation to sound and state, agglutination.*

Tarjima nazariyasi, amaliy tarjima bilan shug'ullanuvchi mutaxassis olim va adabiyotshunoslar orasida doim tarjima maqsadi haqida bahslar yuzaga keladi. Biri tarjimada asliyat mohiyatini anglata bilish asosiy maqsad deb bilsa, boshqasi tarjima asarni yangi auditoriyaning mentaliteti, milliy qadriyatlari va turmush tarzidan kelib chiqan holda moslashtirib o'g'irish tarafdori bo'lishadi (EF English Live. n.d.). Bu kabi bahslar, ayniqsa, bir millat ongida shakllangan, ajodan avlodga o'tib kelayotgan kontseptlar va, shuningdek, tasviriy ifodalar-u taqlid so'zlar tarjimasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, faqat bir millat tafakkurida shakllangan, uning hayot tarzi, qadriyatlari, o'tmishi va kelajagini qamrab olgan kontseptlarni boshqa tilga butun ma'no (freym-lari-yu skriptlari) bilan birga tarjima qilish, to'g'rirog'i, faqat ona tilida mavjud bo'lgan tushunchaning muqobilini topish, ayni paytda, muqobil ham bir hajmda bo'lishi anchayin haqiqatdan yiroq (Wikipedia contributors, 2025). Sababi, ko'p hollarda tarjimon asarni o'quvchiga moslayman deya asar koloritini saqlab qola olmaydi. Shuningdek, aksincha, asarni asliyatga iloji boricha yaqin tarjima qilish holatlarida o'quvchilar jum-lalar, tushunchalar orasidagi g'alizlikni payqashadi va, o'z navbatida, asardan to'liq bahra olish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi. Shu o'rinda tilshunos olimning ushbu masala borasidagi quyidagi fikri e'tiborli: "har bir badiiy tarjimon shak-shubhasiz onomotoplar tarjimasini muammosi bilan yuzlashadi. Zamonaviy tarjima nazariyasiga ko'ra, tarjimonning asosiy vazifasi – asliyatning uslubiy va ekspressiv o'ziga xosliklarini saqlab qolgan holda asarni to'liq va aniq tarjima qilish. Tarjima nazariyasi va amaliyotida asliyat matnda milliy koloritni aks ettiruvchi leksik birliklarni tarjima qilish alohida ahamiyat kasb etadi". Albatta, zamonaviy tarjima nazariyasida milliy mentalitetni, milliy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi so'zlarni o'g'irish masalasida e'tiborga molik fikrlar aytib o'tilgan va bu borada tarjimon uchun qadam-baqadam ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlar bor.

Tasviriy va taqlidiy va boshqa kontseptual harakterga ega so'zlar tarjimasini uchun tavsiyalar tilshunos olimlar S.Vlaxov va S.Florin tomonidan atroflicha qayd qilingan (Wikipedia. In Wikipedia. Retrieved January 20, 2025) Xususan, tasviriy va taqlidiy so'zlar tarjimasini uchun olimlar uch asosiy usulni ilgari surishadi:

1) transliteratsiya – bu usulda tasviriy va taqlidiy so'z birlik bevosita tarjima qilinmasdan, shunchaki so'zning yoziladi, ya'ni yozuv grafikasi tarjima tiliga moslashtiriladi. Albatta, bunda tarjima qilinayotgan tilning fonetik o'ziga xosliklari, tovush va alifbo tizimi inobatga olinib, mavjud qoidalarga moslashtirilgan holda transliteratsiya qilinadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, transliteratsiya usuli – g'alizlikka olib keluvchi har qanday notanish tushuncha tarjimasida eng yaxshi yo'llardan. Shuningdek, transliteratsiyalangan so'z ma'nosi, albatta, matn oxirida iqtibos sifatida keltiriladi. Biroq, ushbu usulning eng maqbul yo'l emasligi tez orada sezilib qoladi, ya'ni, faraz qilaylik, ikki betlik matn ichida besh marta transliteratsiyaga ko'zi tushgan o'quvchi, albatta, o'qish jarayonida birmuncha noqulaylik his etishi mumkin. Lekin, shuningdek, chet tilidagi terminlarga duch kelavergan o'quvchida kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqish susayadi, chunki u kitob qahramonlari-yu uning voqealari o'zidan ancha yiroqda bo'layotganini doimiy ravishda sezib turadi va, oqibatda, asar syujeti begonadek tuyula boshlaydi. Bu usulning ustunligi shundaki, ish jarayonida tarjimon so'zni shunchaki o'z tili talaffuzi va grafikasiga moslab beradi va, shu sababdan, matnning sintaktik qurilishi, qolaversa, leksik tarkibi o'zgarishsiz qoladi. Demak, matnning butun tarkibi birgina tasviriy va taqlidiy so'z ma'nosini ifodalashga bo'ysundirilmaydi.

2) o'zlashtirib tarjima qilish – bunda bir necha usuldan foydalanish mumkin. Jumladan:

- so'zni neologizm sifatida tarjima qilish;
- tasviriy va taqlidiy so'zni tarkibiy qismlarga bo'lib, har birini alohida tarjima qilish (kalka);
- so'zni qismlarga bo'lgan holda ba'zi ma'nolarini tarjima qilib, ba'zilarini aslyatdan olib kombinatsiya yaratish (yarim kalka);

– yangi tasviriy va taqlidiy so'zni tarjima qilinayotgan tilga o'zlashma so'z sifatida olib kirish (muallif o'ylab topgan so'z aslyatning etimologiyasini inkor qilsa-da, uning mohiyatini beradigan semantik neologizm sifatida namoyon bo'ladi (Merriam-Webster online dictionary). Bu usulda tasviriy va taqlidiy so'zlarni tarjima qilishning ustunligi shundaki, o'quvchi matndan ajralmagan holda voqelikni ilg'ab anglab ketaveradi. Yangi tushuncha o'quvchiga tanish bo'lgan eski tushunchalar bilan simbioz holatda osonroq anglashilib ketaveradi. Usulning yaqqol kamchiligi esa tushunchani o'zlashtirish kerakmi/yo'qmi degan savollarsiz, har bir yangi terminni neologizm sifatida o'quvchiga taqdim qiluvchi tarjima asarlar bora-bora sof o'zbek tilida ravon gapirish ilojisiz degan taassurotni uyg'ota boshlaydi);

– taxminiy tarjima – ayni bir oilaga mansub so'zlarni topib, oila boshida turgan so'zni aslyatdagi oila tarkibiga kiruvchi tushuncha o'rnida qo'llash (A.D. Shveytser tomonidan taklif qilingan bu funktsional analog tarjimasida (Kungurov, 1966) matndagi so'z muqobili tarjima qilinayotgan tilda ham topilib, o'rniga shu muqobil qo'yiladi; shuningdek, agar berilgan so'zning hech qanday muqobili bo'lmasa, to'g'ridan-to'g'ri tarjima o'rniga tasvir va izohlardan foydalanish mumkin. Albatta, taxminiy tarjima voqelik mohiyatini aksar hollarda to'liq ochib bera olmaydi. Bunday taxminiy tarjimalar matnda ko'paygani sari o'quvchi uning asl mohiyatidan tobora uzoqlashib boraveradi. Natijada tarjima material va o'quvchi o'rtasida kommunikatsiya uziladi va badiiy asar yana o'quvchisini yo'qotadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, o'rnida va me'yorida qo'llangan taxminiy tarjimalar o'quvchiga asar chet el adabiyotiga tegishli ekanini unuttira oladi. O'quvchida asarga nisbatan qiziqish ortib, undagi voqealarni o'zining realligi deya qabul qila boshlaydi);

– kontekstual tarjima – matnda uchragan tasviriy va taqlidiy so'z (onomatop) realiyaning tarjimasini topilmagan taqdirda ushbu birlik ma'nosini ifodalash uchun gap kontekstiga tushiriladi. Ya'ni aslyatdagi gap mohiyati saqlab qolinib, uning sintaktik ko'rinishini yoki leksik tarkibini o'zgartirib bo'lsa-da, tasviriy va taqlidiy so'z ma'nosini shu matnga yuklash lozim bo'ladi (IJBSAR, 2014).

Garchi kontekstual tarjima usuli bo'lim boshida keltirib o'tilgan zamonaviy tarjimaning asosiy talablariga birmuncha erkin munosabat bo'lsa-da, bu usulda tarjimon notanish, yot tushunchani o'quvchi ko'zidan naribroq qilibgina qolmay, kezi kelganda, o'zbek o'quvchisi yoki, aksincha, deylik ingliz o'quvchisi uchun g'aliz va tushunarsiz tuyulishi mumkin bo'lgan begona grammatik strukturalarni ham anchayin silliqlab keta oladi. Shu sababdan tarjima asar o'quvchi uchun batamom milliy ruh kasb etadi, uning ko'nglini zabt eta oladi. Biroq, usul harchand qulay ko'rinmasin, bu usulda yozuvchi iste'dodini tarjimonning tajribasi-yu mahorati tamomila to'sib qo'yadi. Garchi asar o'quvchi qalbidan joy olsa-da, u asar muallifi bilan hech qachon yuzma-yuz turmaydi. Albatta, aslyatdagi matn haminqadar bo'lsa, tarjimonning mahorati qo'l kelar, biroq tarjimonning badiiy salohiyati muallifnikidan past bo'lgan taqdirda, tarjima konteksti teskari ag'darilgan mujmal asarga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Tarjimon yuqorida keltirilgan metodlardan bittasini qo'llaganidan ko'ra, ularning barchasini maromida, me'yorida va o'z o'rnida qo'llagani maqsadga muvofiq, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. EF English Live. (n.d.). Learn English online with EF English Live. Retrieved from <https://www.englishlive.ef.com>
2. International Journal of Basic Sciences and Applied Research. (2014). Volume 3 (Special Issue), 219–225. Retrieved from <http://www.isicenter.org>

3. International Journal of Basic Sciences and Applied Research. (2014). Volume 3 (Special Issue).
4. Kungurov, R. (1966). Subject. Tashkent: Subject Publishers.
5. Merriam-Webster. (n.d.). Merriam-Webster online dictionary. Retrieved from <https://www.merriam-webster.com>
6. Wikipedia contributors. (n.d.). Wikipedia. In Wikipedia. Retrieved January 20, 2025, from <https://www.wikipedia.org>